

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

# *Alisher Navoiy and the Eastern Renaissance:*

LITERATURE, PHILOSOPHY, HISTORY, AND CULTURE



London • Moscow • Astana • Osh • Petropavlovsk • Tomsk • Ankara • Tashkent

**M.V. Lomonosov Moscow State University (Russian Federation)**  
**Tomsk State University (Russian Federation)**  
**L.N. Gumilyov Eurasian National University (Republic of Kazakhstan)**  
**M. Kozybayev, North Kazakhstan University (Republic of Kazakhstan)**  
**Osh State University (Kyrgyz Republic)**  
**Ankara University (Türkiye)**  
**Academic Research Publisher (United Kingdom)**  
**UniScience journal (Republic of Uzbekistan)**



\*\*\*\*\*

## **MATERIALS**

**The international scientific-practical conference**  
**«ALISHER NAVOIY AND THE EASTERN RENAISSANCE:**  
**LITERATURE, PHILOSOPHY, HISTORY, AND CULTURE»**  
**London, Moscow, Astana, Petropavlovsk, Tashkent, Osh, Tomsk, Ankara**  
**February 9, 2026**

\*\*\*\*\*

chiqishiga sababchi bo'lib qolmay, oddiy xalq vakillarining ham ma'naviy dunyosini kengaytirishga xizmat qilgan, insonlar tafakkurini kengaytirgan va ularning qalbiga asrlar davomida ezgulik urug'ini qadab kelgan. Ushbu urug'ning hosili o'laroq mamlakatimiz dunyo ilm-fani markazlaridan biri sifatida tan olindi deyish to'g'ri bo'ladi, nazarimizda. Shuning uchun ham kutubxonachilik va kitobshunoslik sohalari har qanday davrning eng e'tibor talab qiladigan sohalari qatoriga qo'shiladi. Bu fikrning qanchalik asosli ekanligini tariximiz yaqqol namoyon etib turibdi. Zero tarix ilmi o'tmishdagi jarayonlarni xolis o'rgangan holda, undan to'g'ri xulosa chiqarishni talab qiladi.

### **ADABIYOTLAR**

1. **Axunjanov E.** Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. — Toshkent, 2011.
2. **Axunjanov E.** Vatan kutubxonachiligi tarixi. 1-qism. — Toshkent, 2004.
3. **Axunjanov E.** Vatan kutubxonachiligi tarixi. 2-qism. — Toshkent, 2008.
4. **Bartold V. V.** Uchenoe musulmanskogo Renessansa // Soch. — 1967.
5. **Belovitskaya A. A.** Obshee knigovedeniye. — Moskva, 1987.
6. **Qosimova O., Yesimov T.** Umumiy kutubxonashunoslik. — Toshkent, 1994.
7. **Rtveladze E. V., Livshits V. A.** Pamyatniki drevney pismennosti. — Tashkent, 1985.

---

### **TEMURIYLAR DAVRIDA KITOBAT SAN'ATI RIVOJI («Me'rojnoma» asari misolida)**

---

Turdiyev Jahongir Zafariddin o'g'li

*ORIENTAL universiteti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola turkiy tildagi “Me’rojnoma” asarining uyg‘ur yozuvli nusxasi va uning temuriylar davri madaniy hayotini o‘rganishdagi ahamiyati haqidadir. Uyg‘ur yozuvli qo‘lyozma manbashunoslik va matnshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etilgan. Maqolada temuriylar davrida ko‘chirilgan nodir manbaning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ham bahs yuritilgan. Me’roj Islom tarixida yuz bergan mashhur voqealardan bo‘lib, mumtoz sharq adabiyotida alohida e’tibor qaratilgan mavzulardandir. Adabiyotda “Me’roj” bilan bir qatorda “Isro” so‘zi qo‘llaniladi. “Isro” Alloh taolo Muhammad sollallohu alayhi vasallamni kechaning bir bo‘lagida Makkadagi Masjidul Haromdan Quddusdagi Masjidul Aqsoga sayr qildirishidir. “Me’roj” Alloh taolo so‘nggi payg‘ambari Muhammad sollallohu alayhi vasallamni Quddusi sharifdan yuqoriga ya’ni, O‘zining huzuriga ko‘tarishidir. Shu hodisaga bag‘ishlab yozilgan asarlar “Me’rojnoma” deb ataladi. Buning singari asarlar dastlab arab adabiyotida yaratildi. Keyinchalik fors va turkiy adabiyotda ham “Me’rojnoma”lar mustaqil asar sifatida shakllana bordi.

**Kalit so‘zlar:** Turkiy til, eski uyg‘ur yozuvi, xattotlik san’ati, baxshi, qo‘lyozma, madaniyat.

**Abstract:** This article is devoted to the Uyghur written copy of the Turkic work "Mirajnama" and its significance in the study of the cultural life of the Timurid period. The manuscript with the Uyghur script is analyzed from the point of view of source studies and textual criticism. The article also considers the specifics of a rare source copied during the Timurid period. Miraj is one of the most famous events in the history of Islam and one of the most important themes in classical oriental literature. In literature, the word "Isra" is used together with the word "Meroj". "Isra" means that the transfer of Muhammad (peace and blessings of Allaah be upon him) by the will of Allah from the Al-Haram Mosque in Mecca to the Al-Aqsa Mosque in Jerusalem during one part of the night. "Meraj" is the ascension of the last Prophet Muhammad (peace and blessings of Allah be upon him) from Jerusalem

to heaven to Allah. The works dedicated to this event are called "Mirajnama". Such works were originally created in Arabic literature. Later in Persian and Turkic literature, Mirajnama was formed as an independent work.

**Keywords:** Turkic language, Old Uyghur script, calligraphy art, bakhshi, manuscript, culture.

**Аннотация:** Данная статья посвящена уйгурской письменной копии тюркского произведения «Мирожнома» и ее значению в изучении культурной жизни периода Тимуридов. Рукопись с уйгурским письмом анализируется с точки зрения источниковедения и текстологии. В статье также рассматривается специфика редкого источника, скопированного в период Тимуридов. . Мирадж - одно из самых известных событий в истории ислама и одна из самых важных тем в классической восточной литературе. В литературе вместе со словом «Меродж» используется слово «Исра». «Исра» означает, что перенесение Мухаммада (да благословит его Аллах и приветствует) по воле Аллаха от мечети аль-Харам в Мекке до мечети аль-Акса в Иерусалиме в течение одной части ночи. «Мерадж» - это вознесение последнего Пророка Мухаммада (мир ему и благословение Аллаха) из Иерусалима в небеса к Аллаху. Произведения, посвященные этому событию, называются «Мираджнама». Подобные произведения изначально были созданы в арабской литературе. Позднее в персидской и тюркской литературе «Мираджнама» сложилась как самостоятельное произведение.

**Ключевые слова:** тюркский язык, староуйгурская письменность, искусство каллиграфии, бахши, рукопись, культура.

Temuriylar davlatining yirik madaniy shaharlarida xattotlik maktablari yuzaga kelib, bu davrda yozuv madaniyati, xattotlik san'ati ham rivojlandi. Temuriylar hukmronligida arab xati bilan bir qatorda, eski uyg'ur yozuvi, ham keng ishlatilgan. Temuriylar davrida bitilgan, turkiy kitobat san'ati tarixida nodir sanalgan yodgorliklardan biri o'z davrining yirik madaniyat markazlaridan bo'lgan Hirotda Abu Malik baxshi ko'chirgan uyg'ur yozuvli qo'lyozmadir. Qo'lyozma kitob hozir

Parijdagi Fransiya Milliy kutubxonasi saqlanmoqda. Qo‘lyozmada “Me’rojnoma” hamda Farididdin Attorning “Tazkiratu-l-avliyo” asarlari o‘rin olgan. Ushbu majmuadan 1<sup>b</sup> - 68<sup>a</sup> sahifalariga “Me’rojnoma”, 69<sup>b</sup>-264<sup>b</sup> sahifalariga esa “Tazkiratu-l-avliyo” asari bitilgan. Uyg‘ur xatidagi nusxa tyemuriylar davrining iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohaları rivojlangan Shohrux Mirzo davrida yozilgan. Turkiy til va adabiyotini o‘rganishda qimmatli va nodir yozma yodgorliklaridan biri sanalgan ushbu qo‘lyozmaning muqovasi va qopqog‘i qalin charmdan ishlangan bo‘lib, jigar rangda. Muqovaning o‘rtasida bodom shaklida shamsa mavjud. Shamsaning ichida gullar shaklini ko‘rish mumkin. O‘sha kezlarda muqovasozlikda urf bo‘lgan shamsaning usti va ostida lolalar ishlanmagan. Shuningdek, muqovaning ustki va pastki burchaklariga ishlanadigan lachaklar ham mavjud emas. Qopqoqning o‘rta qismiga yumaloq shaklidagi bo‘rtma naqsh ishlangan. Muqovaning ichki tomonida arab yozuvida طشقون (*Tāšqun*) so‘zi yozilgan. Mazkur nomdan muqovasozning ismini bilishimiz mumkin. Muqovaning yon va ichki qismida qo‘lyozmaning inventar raqami ko‘rsatilgan.

Qo‘lyozma Hirot qog‘oziga ko‘chirilgan, sarg‘ish rangda. Qo‘lyozmaning “Me’rojnoma” qismida jami oltmishta miniatyura mavjud bo‘lib, deyarli har bir matnli varaq orasida bo‘sh varaq qoldirilgan. “Tazkiratu-l-avliyo” qismida esa miniatyura mavjud emas, bo‘sh varaqlar ham yo‘q. Qo‘lyozmaning “Me’rojnoma” qismidagi bo‘sh varaqlar qog‘ozining sifati va rangi asosiy matn yozilgan varaqlardan farqli. Professor Q.Sodiqov fikriga ko‘ra bo‘sh qoldirilgan varaqlar miniatyura bo‘yoqlarini himoyalash hamda varaqlarning bir-biriga yopishib qolishini oldini olish maqsadida qoldirilgan (Sadikov K., 2018: 66). Darhaqiqat, bo‘sh varaqlarning ba’zi joylarida turli ranglardagi miniatyura bo‘yoqlarining kichik dog‘larini ko‘rish mumkin. Matnli varaqlarda poygirlar mavjud. Bu esa, professor Q.Sodiqov tomonidan bildirilgan yuqoridagi fikr to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Qo‘lyozmadagi “Me’rojnoma” qismining birinchi betida Hirot kitobatchiligiga oid unvon ishlangan bo‘lib, uning markaziy qismiga eski uyg‘ur yozuvida zarhal harflar bilan “*Rasūl ‘alayhissalām Me‘rājya baryani*” (Payg‘ambar

alayhissalomning Me'rojga borgani) deb asar nomi yozilgan. Uch chizikli jadval ichida asosiy matn yozilgan. Tashqi chiziq och havo rangda, qolgan ikki ichki chiziqlar zarhal rangda. Uyg'ur xatidagi matn o'ngdan chapga qarab yozilgan. Miniaturasiz betlarda matn 17 qatorni tashkil etadi. Miniatura ishlangan betlarning ko'proq qismini esa tasvir egallagan bo'lib, matn kamroq o'rinni egallagan. Matndagi *Tajri, Muhammad va rasul* so'zlari zarhalda yozilgan. Matnda uchraydigan oyat va hadislardan parchalar esa qizil rangli siyoh bilan arab tilida, kufiy xatida bitilgan.

Majmuadagi so'nggi matn yozilmagan sahifaning pastki o'ng burchak qismida 1980-yilda ta'mirlangani haqida maxsus yozuv mavjud.

“Me'rojnoma” asarining uyg'ur yozuvli qo'lyozmasida matnli va miniaturali sahifalar tepasidagi sarlavhalar arab tilida yozilgan. Sarlavhalar zarhal ranglar bilan suls xatida bitilgan. Arab tilidagi sarlavhalar ham ikki chizikli jadvalga olingan. Tashqi chiziq och havo rangda, ichki qiziq zarhalda. Mazkur arabcha sarlavhalar ostida qora siyoh bilan yozilgan eski uyg'ur yozuvining yugurik xat turidagi matn va miniatura joy olgan. Istanbulga keltirilgandan keyin asarning bo'sh joylariga qora siyoh bilan bitilgan arab yozuvining suls xat turida usmoniy turkchasida matnlar qo'shilgan. Mazkur bitiglar asosan tepa qismda arabcha sarlavha va uyg'ur xatidagi asosiy matnning o'rtasiga, shuningdek, sahifaning tagiga, hoshiyasiga yoki bo'sh qoldirilgan varaqlarga yozilgan. Ushbu bitiglar keyinroq boshqa xattot tomonidan yozilgan bo'lib, unda arab tilidagi sarlavhaning turkiy tarjimai berilgan. Asosiy matndagi qizil rangli arabcha yozuv bilan hoshiyalarga bitilgan arab yozuvini qiyoslaganda uslubdagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi.

Uyg'ur yozuvli qo'lyozmaning “Me'rojnoma” qismini fransuz sharqshunosi Pave de Kurteyl 1882-yilda fransuz tiliga tarjima qilgan hamda arab yozuviga transliteratsiyasini amalga oshirib, Parijda nashr qildirgan Keyinroq, 1889-yilda “Tazkiratu-l-avliyo” qismini ham nashr qildirgan. Pave de Kurteylning “Me'rojnoma” asarini arab yozuviga transliteratsiyasini alohida e'tirof qilish lozim. Bu o'sha davr uchun juda katta ilmiy yangilik edi. Biroq, bugungi kun nuqtayi nazaridan qaralganda bunday deya olmaymiz. Zamonaviy matnshunoslikda

matnning ilmiy transkripsiyasi muhim o‘rin tutadi. Sababi, bunda matn aniq va xatosiz o‘qiladi, ilmiy auditoriya uchun qulay va samaralidir.

Saodat Chig‘atoy ham o‘zining “Türk lehçeleri örnekleri” asarida “Me’rojnomasi” asari haqida to‘xtalgan ( Çağatay S., 1950: 160-165). U tadqiqotida Pave de Kurteylning Parij nashrini asos qilib olgan va arab harflaridan lotin harflariga o‘giran. Natijada bir qator kamchilik va xatolar yuzaga kelgan.

Parijda saqlanayotgan uyg‘ur yozuvli “Me’rojnomasi” asarining muqaddimasi muxtasar bo‘lib, muqaddima Allohga hamd bilan boshlanadi:

*Şukr-u sipas va sitāyiş ul qādir-i lam yazal, on sekiz miñ ‘ālamni yaratqan, törütökän, munazze, bir-u bar, erklig Täñri ta‘ālāya jalla jalāluhu va taqaddasa asmauhu vala ilāha γayruhu.* “Shukr va hamd Ul abadiy qodir, o‘n sakkiz ming olamni yaratgan, tartibga keltirgan, pok, biru bor hukmdor, Undan o‘zga iloh bo‘lmagan Tangri taologa (buyukligi yuksalsin va ismlari muqaddas bo‘lsin).

Shundan so‘ng qisqa na‘t bitilgan:

*Yana yüz miñ salāvāt va tahiyyat Täñri ta‘ālāniñ ḥabībī, yüz yigirmi tört miñ payğambarniñ sardāri Muḥammad rasūlullāhniñ jāniña tegsün. Öküş rahmat rasūl ‘alayhissalāmniñ avlādī bilä çahāryāriña tegsün. Rizvānullāhi ‘alayhim ajma‘in*(Courtaillé A.P., 1882: 6).(Yana yuz ming salavot va tahiyyat Tangri taoloning habibi, yuz yigirma to‘rt ming payg‘ambarning sardori Muhammad rasulullohning ruhiga yetsin. Ko‘pdan-ko‘p rahmat rasul alayhissalomning avlodi bilan chahoriyoriga yetsin. Ularning barchasidan Alloh rozi bo‘lsin”).

Na‘t qismidan so‘ng kitobning yozilish sababi bayon qilingan:

*Emdi bilgil-kim, bu kitābniñ atī “Me‘rājnāma” turur. “Nahju-l-farodis” atliñ kitābdin türk tiligä ewürdük, köp kişilärgä fayda tegsün tep. Täñri ta‘ālāniñ tavfiqi birlä tamām bitilip, xalāyiqniñ köñli közigä şirin körüngäy*(Courtaillé A.P., 1882: 6). (Endi bilginki, ushbu kitobning nomi “Me’rojnomasi”dir. “Nahju-l-farodis” (“Jannat bog‘lariga yo‘l”) nomli kitobdan ko‘p kishilarga foydasi tegsin deb, turkiy

tilga o'girdik. Tangri taoloning izni ila tugal yozilib, xaloyiqning qalb ko'ziga totli ko'ringay).

Qo'lyozmaning "Me'rojnomasi" qismi kolofonida kotibning tilagi keltirilib, quyidagi so'zlar bilan tugallangan:

*Tāngri ta'ālā barčaya yaxšiliq tā'at tavfiqini bersün taqī tamuy azābidin āzād qilsun, učmaq rozī qilsun. Āmīn, yā rabbil-'ālamīn* (Courtaillé A.P., 1882: 95) (Tangri taolo barchaga yaxshilik, toat tavfiqini bersin hamda do'zax azobidan panohida asrab, jannatni nasib etsin. Omin! Ey olamlar Robbisi!).

Majmuaning "Me'rojnomasi" qismidagi kolofonda yuqoridagi jummalardan so'ng sana keltirilmagan. Qo'lyozmadan o'rin olgan Farididdin Attorning "Tazkiratu-l-avliyo" qismidan so'ng yozilgan uchburchak shakldagi kolofonda esa quyidagi sana keltirilgan:

*Tazkirada bitilgan mashayix avliyolarning hikoyat sozlari tugatildi. Tarix sakkiz yuz qirqta, ot yil, jumadul-axir ayni onida Harüda Abü Malik baxshi bitidim* (Courtaillé A.P., 1882: 95). (Tazkirada yozilgan mashoyix avliyolarning hikoya qilgan so'zlari tugatildi. Tarix sakkiz yuz qirqda, ot yili, jumadul-oxir oyining o'ninchisida Hirotda Abu Malik baxshi yozdim). Qo'lyozmada hijriy 840-yil 10 jumadul-oxir oyi qayd etilgan bo'lib, bu sana melodiy 1436-yil 19-dekabr kuniga to'g'ri keladi. Majmuadagi har ikkala asarni ko'chiruvchi kotib bir kishi bo'lgan. Shundan kelib chiqib, mazkur tarixda ko'rsatilgan yil qo'lyozma tarkibidagi "Me'rojnomasi" uchun ham taalluqliligi va asar shu yilda ko'chirilganini xulosa qilish mumkin.

Ma'lumki, o'tmishda *baxshi* so'zi asosan kotiblarga nisbatan aytilgan. Ushbu atama qadimgi turk budda, moniy diniy jamoalarida "ustoz, murabbiy, muallim" ma'nolarida ishlatilgan.

Zamonasining xat-savodli, o'qimishli kishilariga nisbatan qo'llangan bu so'z keyinchalik turkiy tilda va uyg'ur xatida bituvchi kotiblarning nomida saqlanib qoldi. Hozirgi o'zbek tilida esa *baxshi* so'zi "xalq dostonchisi, baxshi"ni bildiradi.

Ayrim o‘zbek shevalarida “tabib” hamda “folbin”ni ham **baxshi** deyishadi ( Sodiqov Q., 2009: 43).

Alisher Navoiy haqida ma’lumot qoldirgan tarixiy asarlardan biri Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asari bo‘lib, u XVI asrga oid qimmatli materiallarga boy, Sharqiy Turkiston (Qashqar), O‘rta Osiyo va Qozog‘iston, Afg‘oniston va Hindiston kabi o‘lkalar tarixiga bag‘ishlangan. Jumladan, “Tarixi Rashidiy” asarida Navoiy haqida shunday ma’lumotlar keltirilgan: “Uning asli uyg‘ur baxshilaridandir. Otasini Kichkina der edilar. Oddiy kishi edi... Birorta ham fozil yo‘qki, uning tarbiyasini ko‘rmagan bo‘lsa. U juda madaniyatli, o‘tkir fahmli, nozikta’b odam edi va hammaning o‘zidek bo‘lishini xohlardi. Bu esa ko‘pchilikka qiyinchilik tug‘dirib, o‘rtada har xil xafachiliklarga sabab bo‘lardi. Mir Alisherda noziklik va tez xafa bo‘lishdan o‘zga ayb topmaydilar(Sirojiddinov Sh., 2011: 204-205). Shuningdek, Mirzo Muhammad Haydar o‘z asarining to‘qson ikkinchi faslida Mir Alisher Navoiy to‘g‘risida ma’lumot bera turib, “Ularning otalarini “andakkina baxshi” deydurlar” deb yozgan edi. Tarixchining bu yozganlari Navoiyning otasi baxshi (kotib) o‘tganidan darak beradi; uni *G‘iyosiddin baxshi* ataganlari ham bejiz emas. Shundan kelib chiqib, Navoiyning bobolari, otasi ham, uyg‘ur xatini yaxshi bilgan va qo‘llagan deyishimiz mumkin. Navoiy ham yoshlik yillari uyg‘ur xatini yaxshigina o‘zlashtirgan, ilk she’rlari ichida o‘sha yozuvda bitilganlari ham bo‘lishi kerak, keyinchalik zamon o‘zgarishiga qarab, arab yozuviga e’tibori ortgan ko‘rinadi (Sodiqov Q., 2018: 54-55).

Parijda saqlanayotgan “Me’rojnom” asari o‘ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Asarda Alloh *Tāhri ta‘ālābirikmasi* bilan keltirilgan bo‘lib, yaratganni ulug‘lash ma’nosida biron jumlada ushbu birikma kelib qolsa, matn yozish uchun joy bo‘lsa ham yangi qatordan boshlab yozilgan. Asar matnida eski uyg‘ur alifbosida yozilgan arabcha so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish uchun xattot Abu Malik baxshi ayrim so‘zlardagi arab tiliga xos harflar ostiga, kichik qilib arab xatida o‘sha harflarning alohida ko‘rinishi yozib ketgan. Masalan, *Muhammad, habib, rahmat* so‘zlarini uyg‘ur xatida yozarkan, so‘zidagi arabcha ح (*h*) tovushini uyg‘ur yozuvidagi *x* harfi bilan ifodalagan va shu harf ostiga “sho‘nday o‘qiladi” degan mazmunda arab

alifbosidagi ح(*h*) harfini yozgan. Shuningdek, *huva*, *ilaha*, ‘*alayhim* so‘zlaridagi و(*h*), *Bayaviy* so‘zidagi (γ) tovushlarini ham x harfi bilan ifodalagan va so‘zlardagi shu harf ostiga arab alifbosining و(*h*) va ع(γ) harflarining alohida ko‘rinishini yozib ketgan. Bundan tashqari ع harflari qatnashgan so‘zlarda ham shunday holni kuzatish mumkin: Asar matnidagi ko‘p takrorlangan *ta‘ālā* so‘zi, *‘ālamīn*, ‘*alayhi*, *Me‘rājnāma* so‘zlaridagi ع(‘*a*) tovushini uyg‘ur yozuvidagi *a* harfi bilan ifodalanib, ostiga ع(‘*a*) harfini yozgan. Agar bir sahifada ana shunday arabcha so‘z yana kelsa, takror kelgan so‘z bo‘lgani uchun so‘z ostiga izoh vazifasini bajaruvchi arabcha harflar yozilmagan.

Ayrim arabcha so‘zlardagi tashdidli qo‘sh undoshni uyg‘ur yozuvida ifodalaganda ham bir undosh yozilib, ustiga tashdid belgisi qo‘yilgan: Xattot asarning hamd qismida *munazze* so‘zini yozarkan, bitta z harfi yozgan va ikkilantirib o‘qilishi uchun ustiga tashdid belgisini qo‘ygan. Biroq, matnda eski uyg‘ur xatida *Allah*, *ummat* kabi qo‘sh undoshlari ikkitadan yozilgan arabcha so‘zlar ham uchraydi.

Shuningdek, *m* tovushini ifodalovchi eski uyg‘ur alifbosidagi “*ma*” harfi so‘z oxirida kelganda ko‘pincha satr ustida yozilgan bo‘lsa, ba‘zan satr ostiga tushirib yozilgan holatda ham uchraydi.

Matnda so‘z boshi va birinchi bo‘g‘inda old qator “ingichka” [ö], [ü] unlilarini ifodalash uchun qo‘shaloq belgidan foydalanilgan. Bunda dastlab “*wa*” harfi yozilib, unga “*ya*” harfi ulangan. Old qator lablangan “ingichka” [ö], [ü] unlilari orqa qator lablangan “yo‘g‘on” [o], [u] unlilaridan shu usul bilan farq qilgan. Masalan: *Uluvköñül tütmängiz!* Jumladagi *köñül* so‘zining birinchi bo‘g‘inidagi [ö] unlisini ifodalash uchun “*wa*” harfi yozilib, unga “*ya*” harfi ulangan. So‘zning ikkinchi bo‘g‘inidagi [ü] unlisini ifodalash uchun esa faqat “*wa*” harfi yozilgan.

Shu bilan birga asar matnida “*wa*” harfidan keyin “*ya*” harfi kelsa, kontekstga qarab birinchi bo‘g‘inda old qator “ingichka” [ö], [ü] unlilarini emas, balki, birinchi kelgan “*wa*” harfi orqa qator lablangan “yo‘g‘on” [o], [u] unlisini, undan keyin kelgan “*ya*” harfi esa [y] undoshini bildirgan. Masalan: *Farmānya boyun sününgüz!*

Jumladagi *boyun* soʻzida ham “*wa*” harfidan keyin “*ya*” harfi yozilgan. Biroq, kontekstdan kelib chiqib bu belgilarning har biri alohida tovushni bildiruvchi harflarni bildiradi. Shunday qilib, soʻzdagi “*wa*” harfi *boyun* soʻzidagi “yoʻgʻon” [o] unlisini bildirsa, “*ya*” harfi soʻzdagi [y] undoshini bildiradi.

Uygʻur alifbosida jami 18 ta harf boʻlib, Mahmud Koshgʻariy oʻzining “Devonu lugʻati-t-turk” asarida uygʻur alifbosini keltiradi va har bir shakl ostida arab harflari bilan ularning maʼnosini ham beradi. Alifboda harflar soni oz boʻlishiga qaramay, uygʻur yozuvining imlo prinsiplari puxta ishlangan. Qator harflarga bir emas, bir qancha tovushni ifodalash vazifasi yuklatilgan. Ayniqsa, yozuvning keyingi bosqichida (XI–XV asrlarning yodgorliklarida), baʼzi tovushlarni farqlash maqsadida qoʻshimcha nuqta va ishoralardan unumli foydalanilgan. Puxta imlo va qoʻshimcha grafik vositalar yozuvning imkoniyati kengligiga dalolat beradi. Shuning uchun ham uygʻur xati uzoq yuz yilliklar mobaynida turkiy tilning fonetik-orfoepik talablarini bemalol qondirib keldi (Sodiqov Q., 2009: 98).

Uygʻur yozuvida yozilgan “Meʼrojnoma” asarida ham bir harf bir nechta tovushni ifodalaganini kuzatish mumkin. Asarda quyidagi tovushlar bir xil harflar orqali ifodalangan:  $b - p$ ,  $k - g$ ,  $x - \gamma$ ,  $\check{c} - j - z$ ,  $w - f$ . Sonor  $\eta$  esa yozuvda ikki harf ( $n+k$ ) bilan berilgan.

Bundan tashqari soʻz oxirida kelgan *i* unlisini bildiruvchi *ya* harfi ayrim hollarda soʻzga qoʻshilib yozilsa, baʼzan soʻzga qoʻshilmasdan alohida yozilgan.

Umuman, turkiy xalqlarning yozuv madaniyati tarixida uygʻur xatining ahamiyati katta. Bu yozuvning mintaqada tarqalishi va taraqqiyoti davomida temuriylar davri alohida ahamiyat kasb etadi. Uygʻur xatining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotdagi oʻrnini belgilashda, rasmiy va diplomatik munosabatlardagi mavqeini taʼminlashda temuriylarning xizmati katta boʻldi. Turkiy tildagi “Meʼrojnoma”ning uygʻur yozuvli nusxasi Temuriylar davrida yozilgan oʻzbek matnshunosligi, tili, adabiyoti va oʻzbek kitobchilik sanʼatini oʻrganishda nodir yozma obidalardan biridir.

Tarixiy, badiiy, diniy, ilmiy mavzularni o‘zida jamlagan “Me’rojnoma” muqaddimasida kelgan jumlar hamda asar matnining nihoyatda xalqchil tilda bitilganligi asarni turkiy tilga o‘girilishsababini ko‘rsatadi. “Me’rojnoma”ni turkiy tilga o‘girishdan asosiy maqsad - oddiy aholi ham asarni o‘z tillarida o‘qib tushinishlari va ular uchun foydali bo‘lishi ko‘zlangan. “Me’rojnoma”ning turkiy tildagi tarjimasio‘zbek tarjima maktabi uzoq yillik tarixga egaligini ko‘rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Sadikov K.** The Old Uyghur-Writing Manuscript in the Funds of the National Library of France // The Light of Islam. — 2018. — № 1.
2. **Sodiqov Q.** Turkiy til tarixi. — Toshkent, 2009.
3. **Содиқов Қ.** Эски туркий ёзувлари. — Тошкент, 2008.
4. **Содиқов Қ.** “Меърожнома”: тилимиз ва адабиётимизнинг нодир намунаси // Даракчи. — 2018. — № 2 (11.01.2018).
5. **Сирожиддинов Ш.** Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. — Тошкент: Akademnashr, 2011.
6. **Содиқов Қ.** Эски туркий ёзувлар. — Тошкент, 2009.
7. **Çağatay Saadet.** Türk lehçeleri örnekleri. — Ankara, 1950.
8. **Pavet de Courtaile.** Miradj-nameh. Le manuscrit Oigour de la Bibliothèque Nationale, Paris. — 1882.
9. **Эркинов А.** Матншунослик асослари. — Тошкент, 2009.
10. **Ан-Наим.** Арабча-ўзбекча луғат. — Тошкент, 2003.
11. **Древнетюркский словарь.** — Ленинград, 1969.